



TILSHUNOSLIKDA MAQOL VA MATALLARNING PARAMEOLOGIK BIRLIK SIFATIDA O'RGANISH MASALASI

Ismoilova Gulyora Xabibullo qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Kalit so'zlar: Hikmatli so'z, maqol, metal, paremiologiya

Kirish

Hikmatli so'zlar, maqol va matallar qisqa, mazmunli va dono ifoda shakllaridir. Ular dunyo tillarining barchasida muhim tuzilma hisoblanib, madaniy hamda tilshunoslik tadqiqotlarida alohida ahamiyatga ega. Ahmed Hoshanning fikriga ko'ra, hikmatli so'zlar deyarli barcha madaniyatlarda uchraydi va ko'pincha boshqa madaniyatlardan kelib chiqqan bo'ladi[1]. Ularning kelib chiqishi ko'pincha noma'lum yoki vaqt o'tishi bilan unutiladi. Hikmatli so'zlar til foydalanuvchilarining madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Ular kundalik hayotdagi kuzatishlar va foydalanish asosida shakllanadi va turli mavzularni ifodalashi mumkin. Ba'zi hikmatli so'zlar universaldir va deyarli barcha tillarda uchraydi, ba'zilari esa madaniyatga xos va tilga yo'nalgan bo'ladi. Hikmatli so'zlarni tushunish, ular ishlatiladigan lingvistik va nolingvistik kontekstga bog'liq bo'ladi.

Asosiy qism

Har bir xalqning yashash tarzi, iqtisodiyoti, madaniyati, urf-odati, tili va dunyoqarashi, og'zaki va badiiy adabiyotini to'plab, o'zidan keying avlodga yetkizib berishi tilning milliy-madaniy semantikasidir. Miliy-madaniy semantika tilning barcha qatlamlarida mavjud bo'lib, ularga leksika, grammatika va fonetika ham kiradi. Shuni takidlash joizki, milliy-madaniy semantikani aniq namoyon qiladigan til birliklari frazema va paremalardir. H., Berdiyorov , R., Rasulovning bergen ma'lumotlariga ko'ra paremiologiya hikmatli so'zlarni o'rjanuvchi ta'limot bo'lib, unga ikki xil ta'rif beriladi: 1) ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni — paremalarni



o‘rganadigan fan sohasi; 2) muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar — paremalar tizi-miga aytildi. Paremalarni to’plash paremiografiya hisoblanadi[2].

1. Kelajakdagi muhim yo‘nalishlar:

- Paremalarni kontekstual va situativ tahlil qilish.
- Ularning strukturaviy, semantik, stilistik va lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish.
- Ikki tilli lug‘atlarni yaratish zarurati.

2. **Hozirgi holat:** Paremalar tilshunoslikda imkon qadar o‘rganilgan bo‘lsa-da, maqollarni lingvistik hodisa sifatida chuqr tadqiq qilish yetarli darajada rivojlanmagan. Ayniqsa, tabiat hodisalari bilan bog‘liq maqollar bu borada alohida tadqiqotni talab qiladi.

XX asr oxiri XI asr boshlariga kelib, lingvitika sohasi chet ellik olimlarning maqollarni to’plash va tavsiflash masalalariga faol qiziqishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, Amerika maqollari lug‘ati "A dictionary of American proverbs"[7], shotland maqollari lug‘ati "Scottish proverbs"[11], shuningdek, mashhur afro-amerikalik arboblarning nutqida maqollarning ishlatilish masalalariga bag‘ishlangan asarlar maqollarning o‘rganilishining boshlanshi hisoblanadi[9]. Bugungi kunga kelib olimlar maqollarning kontekstual qo’llanilishi, mashhur kishilarning nutqida ishlatilishini o‘rganib, maqollarning ishlatilishi va shakllanishiga ijtimoiy, psixologik, milliy, maishiy omillarning ta’sirini o‘rganishga ko‘proq murojaat qilishmoqda[14].

Yevropa tilshunosligida XVIII asrning boshlarida nemis paremiografi W. Wander Yevropa xalqlariga oid 250,000 dan ortiq maqollarni o’z ichiga olgan beshta kitobdan iborat paremiologik lug‘atini yaratishi paremiografiya yo‘nalishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Ma’lum vaqt o’tib R.K. Trench “On the Lessons of Proverbs” nomi ostida paremiologiya lug‘atini yozib, ingliz tili nashriyoti uchun ulkan hissasini qo’shdi[10].

Paremalar avloddan avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslikning o‘rganish ob‘yekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko‘pincha she’riy shaklga o‘xshaydi



va ularda o‘xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo‘llanadi. Shu bilan birga paremalar so‘zlardan tuzilib, ma’lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lgani uchun tilshunoslikning ham o‘rganish obyektidir[3]. Maqollarni to’plash oldingi davrlardanoq yozuvchi olimlarning diqqat markazida bo’lgan. Buning misolini mashhur hind masali “Kalila va Dimna”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u biling”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk”, Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul-haqoyiq” hamda Alisher Navoiyning ko‘pgina asarlarida ham maqol va matallarning o‘rinli qo‘llanganligi va izohlanganligini ko‘rish mumkin[5]. Maqolni aniqlash kuchli iroda, sabr-toqat va turli qarshiliklarga qarshi turish kabi bir qator qiyinchiliklarga sabab bo‘lishiga qaramay, ham folklorshunoslar va tilshunoslar uchun asosiy o‘rganish obektlaridan biri hisoblangan. Shuning uchun ham yillar davomida Archer Teylor, Bartlett Jere, Alen Dunde, Uayting, Lutz Röhrich va Wolfgang Mieder kabi jahon tan olgan olimlarning e’tiborini tortgan. Jumladan, Taylor, Seiler, Firth, Mieder kabi olimlar o‘zlarining asarlarida folklorshunoslikda maqollarning o‘rganilishining asosiy sababi ularning an’anavilgi deb takidlashgan[6].

Dunyo tan olgan xalqaro folklorist Alan Dundening[10] fikrlariga ko‘ra maqol - bu vaziyatni umumlashtiradigan, o‘tmishdagi masala bo‘yicha hukm chiqaradigan yoki kelajak uchun harakat yo‘nalishini tavsiya qiladigan an’anaviy himatli so’zdir. Ba’zi maqollarda "Halollik - eng yaxshi siyosat" kabi bir haqiqat yoritsa ham lekin ko‘pchilik maqollar majoziy ma’noga ega bo’ladi. Maqollarda kamida bitta mavzu va ushbu mavzu bo‘yicha bitta sharhni uchratishimiz mumkin. Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi shakllaridan biri bo‘lib, dunyo xalqlarining ko‘pchiligi orasida juda kam bo’lsada topiladi[11]. Shunga qaramay, ular har doim ham hamma vaqt uchun to’g’ri kelmaydi.

Maqollar folkloristik, lingvistik va leksikografik nuqtai nazardan turlicha uslub va maqsadlar bilan o‘rganilgan, natijada turli terminologiyalar, ba’zan esa ustma-ust, ba’zan bir-birini to’ldiruvchi nazariyalar aytilgan[14]. Folokloristlar maqol va matallarni turg’un birikmalar, topishmoq va iboralar bilan bir qatorda o‘rganib,



madaniyatlararo taqqoslash va tarjima masalalarida undan foydalanishgan. Tilshunoslar uchun esa maqollarni leksema, gap, to'plam, birikma, matn va ko'chirma gaplarning xususiyatlarini birlashtirib, prosodiya, parallelizm, sintaksis, leksika va boshqa tasviriylariga ko'ra o'rganishgan. Xususan, bu borada jahon tilshunosligida bir qator olimlar maqollar bo'yicha turli izlanishlar olib borganlar. Hrisztalina Hrisztova-Gotthardt va Melita Aleksa Vargalar[4] "Introduction to Paremiology: A Comprehensive Guide to Proverb "Studies" nomli to'plamda turli olimlarning maqollar bo'yicha yozgan qo'llanmalarini bir joyga jamlab, paremilogiya sohasi chun ulkan ish qilishgan. Jumladan, kitobning birinchi bobida Germaniyadagi Saarland Universiteti olimi Neal R. Norrickning paremilogiya sohasini maqollarning folkloristik va lingvistik jihatlarni hisobga olgan holda o'rganish obyekti, terminologiyasi, maqolning ta'rifi va xususiyatlari bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari va uning natijalari misollar bilan keltirilgan. Neal Norrickning "How Proverbs Mean"[8]nomli kitobida maqollarning semantic va struktur jihatdan tuzilishi, ularning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanilishi va sintaktik va struktur jihatdan xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Wolfgang Mieder "Origin of proverbs" [12]nomli risolasida yevropa maqollarining manbalari, oldingi va zamonaviy maqollarning kelib chiqishi va ularning nazariyalari haqida ma'lumotlar to'plagan. Maqollarni tadqiq qilish bo'yicha dunyo tilshunosligida turli tadqiqotlar olib borilgan.

Sharipova Maftunaxon Jamshid qizining[15] "Chorva nomlari asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishi o'zbek xalq maqollarida hayvon nomlari va ulardan hosil bo'lgan birliklarni o'rganishga bag'ishlangan. Ishda Jahon va turkiy tilshunoslikda zoonimlar hamda zoonim komponentli iboralar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi. Dissertatsiyada "qo'y" lug'aviy-ma'noviy guruhi (LMG) ishtirokidagi maqollar tahlil qilinib, ularning ijtimoiy hayot bilan bog'liq ma'nolarini sharhlashga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ushbu leksik birliklarning kundalik nutqda qo'llanish darajasi aniqlanib, ularning muhim va ikkinchi darajali xususiyatlari belgilangan. Tadqiqot natijasida "qo'y" LMGga oid maqollarning



lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari ochib beriladi. Bundan tashqari, badiiy asarlardagi ushbu birliklar tahlil qilinib, o'zbek xalqining ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi lingvistik elementlar tadqiq etilgan[5].

Xulosa

Xulosa o'mnida shuni ta'kidlash o'rinniki, dunyo tilshunosligida paremiologik va frazeologik birliklarning turli aspektlar: struktur-semantik, lingvokulturologik, kognitiv xususiyatlari, maqolning idioma, ibora, aforizm va matallar bilan munosabati lisoniy o'rni, diaxron va sinxron holati haqida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo'lsada, ularning o'zbek va ingliz tilidagi qiyosiy struktur-grammatik xususiyatlarini ochib berish tilshunoslik sohasining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmed Hoshan. The Place of Proverbs in Linguistic Studies. University of Basrah. March 2021.
2. Berdiyorov H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lug'ati, Toshkent. O'qituvchi. 1984. 289 b.
3. Grzybek, Peter (1995). "Foundations of Semiotic Proverb Study" Deproverbio Electronic Magazine, Vol.1, No.1. pp.1-31. Available at: www.deproverbio.com
4. Hrisztalina Hrisztova-Gotthardt, Melita Aleksa Varga (eds.) Introduction to Paremiology: A Comprehensive Guide to Proverb Studies. De Gruyter Open Ltd, Warsaw/Berlin. 2014. p 382.
5. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-11-33>
6. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/issue/view/75>
7. Mieder W., Kingbury S.A., Harder K.B. Dictionary of American Proverbs. Oxford University Press. New York. 1996. 710 p
8. Norrick, Neal R.: How proverbs mean : Semantic studies in English proverbs / by Neal R. Norrick. — Berlin ; New York; Amsterdam : Mouton, 1985.
9. Prahlad A. African-American Proverbs in Context. The University Press of Mississippi, 1996. 292 p



10. Ro'ziqulova Guliruxsor G'ofur qizi. PAREMIOLOGIYA –XALQNING MILLIY MADANIYAT ASOSI SIFATIDA (INGLIZ VA O'ZBEK TILI QIYOSIDA). «Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, 1(29), 21-24, 2022.
11. Walker C. Scottish Proverbs. Edinburgh, Birlinn Limited, 1996. 128 p
12. Wolfgang Mieder. “THE PROOF OF THE PROVERB IS IN THE PROBING”. 2007. Bu haqida qarang: Dundes, Alan. On the Structure of the Proverb. Proverbium, no. 25 (1975), pp. 961–973.
13. Wolfgang Mieder. Origin of proverbs. In H. Hrisztova-Gotthardt, & M. Aleksa Varga (Eds.), Introduction to Paremiology: A Comprehensive Guide to Proverb Studies. 2014. (pp. 28-49).
14. Гриченко Людмила Владимировна. ИЗУЧЕНИЕ ПОСЛОВИЦ В ОТЕЧЕСТВЕННОЙ И ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВОПРОСА. Балтийский гуманитарный журнал. 2019. Т. 8. № 4(29).
15. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. дис. – Тошкент, 2002. – 136 б.